



INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN ISHLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Sobirjanova Gulshirin Shuxratovna

Turan internatsional university

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18346646>

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi inklyuziv ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning pedagogik asoslari yoritilgan. Inklyuziv ta'limning mohiyati, uning maktabgacha ta'lim tizimidagi ahamiyati hamda tarbiyachining kasbiy faoliyatidagi o'rnini tahlil qilingan. Shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarni ijtimoiy moslashtirishda samarali pedagogik yondashuvlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, pedagogik yondashuv, ijtimoiy moslashuv.

Аннотация. В тезисе рассматриваются педагогические основы работы с детьми дошкольного возраста в условиях инклюзивного образования. Проанализирована сущность инклюзивного образования, его значение в системе дошкольного образования, а также роль воспитателя в организации инклюзивной образовательной среды. Особое внимание уделено педагогическим подходам, способствующим социальной адаптации детей с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дошкольное образование, воспитатель, педагогический подход, социальная адаптация.

Bugungi kunda ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarning teng huquqli ta'lim olishini ta'minlash, ularning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi individual xususiyatlarni inobatga olish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta'lim bolalarning jamiyatga moslashuvi va ijtimoiylashuvida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism Inklyuziv ta'lim — bu alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda tarbiyalash va ta'lim berishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv muhitni yaratish tarbiyachidan yuqori kasbiy kompetensiya, sabr-toqat va individual yondashuvni talab etadi. Tarbiyachi inklyuziv guruhda har bir bolaning qobiliyati, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishi zarur. O'yin, muloqot va ijodiy faoliyat orqali bolalarda o'zaro hurmat, hamkorlik va bag'rikenglikni shakllantirish inklyuziv ta'limning muhim pedagogik asoslaridan biridir. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlik qilish





inklyuziv ta'lim samaradorligini oshiradi. Maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu konsepsiyada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

Inklyuziv ta'lim bu o'zi nima? INKLYUZIV - (inklyuziya - inglizcha [inclusion] - uyg'unlashish) Hamkorlikdagi ta'lim bo'lib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng samarali, eng insonparvar ta'lim sifatida tan olingan. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lim olishidir. Inklyuziv ta'lim pedagog xodimlar va ota-onalar tomonida ta'lim jarayoniga ijodiy yondashuvni o'zida aks ettiradigan tabiiy jarayon hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim rasmiy ta'lim tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta'limda ko'proq o'qishda, o'rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv bog'chada tarbiyachi qanday sifatlarga ega bo'lish kerak? Inklyuziv ta'limda o'qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi.





Avvalo, o'qituvchi inklyuziv taffakkurga ega bo'lishi va ta'lim sifati ma'suliyatini o'z zimmasiga olishi shart. Inklyuziv ta'lim berish o'qituvchilar ishi sifatining asosiy mezonlari - o'qituvchi o'quvchilarning turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi. Yana bir sifat - hamkorlikni yo'lga qo'yish. Chunki o'qituvchilar uchun hamkorlik va o'zaro fikr almashish muhimdir. O'qituvchi o'z faoliyatini tizimli baholab borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalararo guruhlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo'llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamroqli maktab hamkorligini yo'lga qo'yish kabi xislatlarga ega bo'lish kerak. Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

- o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi
- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;

- dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- o'qishga bo'lgan ehtiyeji va qiziqishlari ortadi;
- o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;
- ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;
- yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi.

Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Ma'lumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi. Maxsus ta'lim o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi. Inklyuziv ta'limning o'ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o'qituvchi bir -birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda hal etishadi.

Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari: Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarning ta'lim





olishlari uchun zaruriy psixologik- pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish,

ularning imkoniyatiga yunaltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni

amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va saglom bolalarning extiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarni oilalardan ajramagan xolda yashash xuquqini ro'yobga chiqarish;

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta'lim tizimining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'ni va roli quyidagi vazifalarning hal etilishi talab etiladi: ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik - pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; o'quvchilarning ta'limdagi tenglik xuquqini kafolatlash, jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning extiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish, imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash xuquqini ro'yobga chiqarish, jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir. Yuqoridagi vazifalarni to'laqonli amalga oshirishda eng birinchi galda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: Imkoniyati cheklangan bola ham barcha bolalardek bola hisoblanadi va u tan olinishi, hurmatga sazovor bo'lishiga haqli, shuning uchun ularni nuqsoni bilan atalishi nomaqbul hisoblanadi. Bola, u qanday holatda va qanday imkoniyatga ega bulishidan qat'iy nazar har doim kattalar yordamiga muxtojdir. Uni ajratish yoki alohida nom bilan atash insonparvarlik nuqtai nazariga tugri kelmaydi. Agar imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan "anomal bolalar", "nogiron bolalar", "ko'r bolalar", "kar bolalar", "aqli zaif bolalar", "harakat tayanch a'zolari falajlangan bolalar" tushunchalari ishlatilib kelindi. Ammo ushbu tushunchalar mkoniyati cheklangan bolalarni xuquqlarini poymol qiladi. Ota-onalarga ham salbiy ta'sir etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar me'yorda rivojlanishdagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda, ammo imkoniyat





darajasida bajara oladilar. Bolaning huquqlarini himoya qilish, ularga ijobiy munosabatda bo'lish tarbiyalashning muxim usulidir. Shuning uchun ham taxkirlashlarga yul kuymaslik talab etiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash jamiyatda tenglik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Tarbiyachining kasbiy mahorati, to'g'ri pedagogik yondashuvi va qulay muhit yaratishi inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshishida muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'lim jarayonida tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi, individual yondashuvi va bolalarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek , ota – onalar bilan samarali hamkorlik qilish va qulay pedagogik muhit yaratish inklyuziv ta'limning samaradorligini oshiradi. Shu bois , maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv yondashuvni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish to'g'risida" gi qarori
- 2.Abdullayeva Sh.X.
Maktabgacha pedagogika. Toshkent: O'qituvchi , 2020.
- 3.Karimova M.R.
4. Inklyuziv ta'lim asoslari. Toshkent:Fan va texnologiya, 2021. 3. D.3. Ахметова, .Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . -Казань, 2013
- 5 Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010
- 6.Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. - М.: Мозаика-Синтез, 2011. - 144 с.
- 7.D.S.Qaxarova " Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil

